



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 05 | pp. 257-261 | ISSN: 2181-1865  
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>



**Soporboev Doniyor Yusufboy o'g'li**  
**Baxtiyorov Xudaybergan Xamdam o'g'li**  
Urganch davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi  
[donyorsoporboev2@gmail.com](mailto:donyorsoporboev2@gmail.com)  
[extazzy9595@gmail.com](mailto:extazzy9595@gmail.com)

**Annotasiya:** Mamlakatdagi investisiya faolligini oshirishda banklar faoliyati, ularning roliga bag'ishlab ushbu maqola tayyorlangan. Ularning investision siyosatini amalga oshirish ko'rsatilgan. Banklarning investisiya siyosatiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va xulosalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена деятельности банков и их роли в повышении инвестиционной активности в стране. Показана реализация их инвестиционной политики. Выявлены факторы, влияющие на инвестиционную политику банков, и сделаны выводы.

**Abstract:** This article is devoted to the activities of banks and their role in increasing investment activity in the country. The implementation of their investment policy is shown. The factors influencing the investment policy of banks are identified, and conclusions are drawn.

**Kalit so'zlar:** investisiya, kapitallashuv darajasi, kredit qo'yilmalari, kredit portfeli, moliyaviy resurs, innovasion iqtisodiyot.

**Ключевые слова:** инвестиции, уровень капитализации, ссудные депозиты, ссудный портфель, финансовый ресурс, инновационная экономика.

**Key words:** investments, capitalization level, loan deposits, loan portfolio, financial resource, innovative economy.

### Kirish

Mamlakat investisiya siyosati xorijiy investisiyalarni jalg etishning o'ziga xos yo'naliishlarini, ularni jalg etish bo'yicha rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va ushbu faoliyatning huquqiy tartibini belgilaydi. Banklar investisiya jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ta'minlashda faol ishtirok etishi bilan alohida o'r'in egallaydi. Chunki, zamonaviy innovasion iqtisodiyotni, raqamli iqtisodiyotni barpo etishda mamlakat tijorat banklari investisiya jarayonlarida doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investisiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga

qo'ygan. 2022 yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotiga investisiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Mamlakatga kiritilayotgan xorijiy investisiyalar va kreditlar hajmi 2017 yilda 3,3 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil yakunida ushbu ko'rsatkich uch barobar ortib, 9,8 milliard dollarga yetdi. Buning natijasida xorijiy investisiyalar va kreditlarning jami investisiyalardagi ulushi 23,8 foizdan 40,5 foizgacha ortdi<sup>1</sup>. Ma'lumki, mamlakat investisiya muhitini jozibadorligi xorijiy investisiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi. Investision jozibadorlikni tashkil etuvchi asosiy elementlar sifatida mintaqaga investision iqlimi, iqtisodiyotda banklarning investision faolligi, ularning investision va innovasion salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali ma'lum bir hududning investision salohiyatini tadqiq qilish, tahlil qilish, baholash va mamlakat investision hamda innovasion faolligini oshirish istiqbollari belgilab olinishi lozim deb hisoblaymiz.

### **Адабиётлар таҳлили**

Banklarning xizmatlarini, ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini hamda investision faoliyati bo'yicha turlicha baho berib kelinadi. Ayrim iqtisodchilar banklarning kredit siyosatiga yuqori baho berishsa, ikkinchi guruh iqtisodchilar uni o'rnnini keyingi darajaga qo'yib kelganlar. Kreditning naturalistik nazariyasi asoschilari bo'lgan A.Smit va D.Rikardolar kreditning ahamiyatini pasaytirishadi. Ya'ni kredit faqat jamiyatda taqsimlangan kapitalni alohida ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kayta taqsimlash shakli bo'ladi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish omili bo'la olmaydi [1].

MDH olimlaridan bo'lgan G.N.Beloglazova esa iqtisodiyotda investisiyalarning katta qismi markazlashgan holda amalga oshirilishini hamda investisiyalarni moliyalashtirishdagi ulushning juda kichik qismini tijorat banklari kreditlari tashkil etadi deb hisoblaydi [2].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Mominovlar investisiya muhitini – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir deyishadi [3].

### **Tahliliy natijalar**

Banklarning investisiya faoliyati-bu bank investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun mablag'larni joylashtirishi bilan bog'liq faoliyatidir. Banklarning investisiya faoliyatini boshqa investorlar faoliyatidan farqli tomoni shundaki, ular investisiyani jalb qilingan mablag'lar asosida amalga oshiradilar. Shuning uchun ham bank bir tomonidan investor sifatida bozorda paydo bo'lsa, boshqa tomonidan esa u qarzdordir.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investisiya faolligining o'sish sur'atlari investisiya muhitiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Xorijiy investisiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shartsharoitlar mavjud (ijobiy) bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga qo'yilishi mumkin. Tijorat banklarining resurslari manbalari bevosita o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadi. O'z mablag'lari bank kapitalidan iborat bo'lsa, jalb qilingan mablag'lar turli shakldagi depozitlar hisobidan shakllanadi. Tijorat banklari faol investisiya faoliyatini olib borishlari

uchun, avvalo kapitallashuv darajalarini oshirish zarur.  
1-  
rasm

**Jahonda investision loyihalar asosida faoliyat ko'rsatadigan korxonalar  
darajasining bank kreditlariga bo'lgan talabi<sup>1</sup>, foizda**



Yuqoridagi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda investitsion loyihalarini kreditlash aholining turmush darajasini oshirish, aholi bandligi, ularning iqtisodiy faolligini oshirish kabi aniq ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilishi lozim. Dunyo amaliyotida sinalgan investitsion kreditlashning tajribasidan O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishdagi bozorning shakllanayotganligi sharoitida uning ijobiy tomonlaridan foydalanish nazariy va amaliy jihatdan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada kengaytirishga, eksport qiluvchi korxonalarni hamda kichik biznesni qo'llabquvvatlash borasidagi choratadbirlarni amalga oshirishni davom ettirishga, iqtisodiyotning realsektor korxonalari tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida tijorat banklarining ushbu loyihalarda o'z kredit resurslari bilan faol ishtiroy etishlarini ta'minlashga va pirovard natijada ularni yirik investitsiya institutlariga aylantirishga sharoit yaratadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati katta bo'lib, u quyidagicha izohlanadi:

- xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va natijada import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi.

2021 yilda mamlakatimizda rag'batlantiruvchi fiskal siyosat yuritilishi, ishlab chiqarish faolliginining tiklanishi, aholi daromadlarining yuqori sur'atlarda o'sishi, 2020 yilda amalga oshirilishi kechiktirilgan investitsion va boshqa muhim loyihalarning 2021

yilda davom ettirilishi natijasida investitsion hamda iste'mol talabining tiklanishi kuzatildi. 2021 yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning kreditga bo'lgan talabini qondirish va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga jami 166,7 trln. so'm miqdorida yoki o'tgan yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'p kreditlar yo'naltirildi. 2021 yilda koronavirus bilan bog'liq holatning yaxshilanishi hamda qat'iy karantin cheklovlarining kiritilmaganligi, iqtisodiy kutilmalarning barqarorlashishi mamlakatda investitsion faollikning oshishiga olib keldi[4].

Jahoning yirik iqtisodiyotlar Markaziy banklari tomonidan pul-kredit sharoitlarini qat'iy lashtirishni boshladi. Xususan, rivojlangan davlatlarda asosiy foiz stavkasi o'rtacha 1 foiz bandga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 1,5 foiz bandga ko'tarildi. Bunda, AQSh Federal zaxira tizimi 2022 yil mart oyida foiz stavkasini 0,25 foiz bandga oshirdi. Bu o'z navbatida, rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida xorijiy investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha raqobatning kuchayishiga olib kelishi mumkin[5].

Ta'kidlash lozimki, tijorat banklarining investitsion jarayonlarda faol qatnashishi iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda va mamlakatning iqtisodiy salohiyati yuksalishida muhim o'rinni tutadi. Bundan tashqari respublika iqtisodiyotida hamda uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarining zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiya manbalarini topishga va ularidan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishda tijorat banklarining o'rni muhim ahamiyatga egadir.

### **Xulosa va takliflar**

Bizningcha iqtisodiyotni banklarning investitsiya siyosati orqali faollikni va investitsion muhit jozibadorligi oshirish uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

- banklarning raqobatdoshlik darajasini oshirish hamda ularni ilg'or tajribalar asosida faoliyat yuritadigan tizimga aylantirish;
- bank-moliya xizmat ko'rsatish sohasida aholining moliyaviy savodxonligi hamda huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish;
- mijozlarning bank tizimiga bo'lgan talablarini doimiy monitoring qilib borish;
- jalb qilinayotgan investitsiyalarini yo'naltirishda iqtisodiyotning mikro va makro darajasida mutanosib va muvozanatli rivojlanishiga asos bo'ladigan shart-sharoitlarni vujudga keltirish;
- loyihalarni moliyalashtirishda bank tomonidan aholining bo'sh turgan mablag'larini ko'proq jalb qilish;
- tijorat banklarining investitsiya faoliyatida ishtirokini muvofiqlashtirish, investitsiya loyihalarini moliyalash hamda amalga oshirilishini monitoring qilishni yanada takomillashtirish lozim.

Ushbu vazifalarlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotda investitsiya faolligiga erishish uchun muhim asos bo'ladi deb hisoblaymiz. Chunki jahon tajribasiga ko'ra, tijorat banklarining faol investitsion siyosati natijasida mamlakat bank-moliya sohasi va iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishiladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir) 25.12.2019 y. O'RQ-598.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son qarori.
4. Dengi. Kredit. Banki: Uchebnik. / Pod red. G.N.Beloglazovoy Beloglazova G. N. – M.: Vysshee obrazovanie, 2009. – 392 s.
5. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – B. 153.
6. Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari <http://www.worldbank.org>
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari. <https://cbu.uz/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti rasmiy ma'lumotlari.